

Bugun qalblarni hayajonga solib jaranglagan birinchi qo'ng'iroqning jo'shqin sadolari yurtimizdagi barcha o'quvchilarni bilimlar qasriga chorladi. Yangi o'quv yilingiz muborak bo'lsin, aziz o'quvchilar!



www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# Tong Yulduzi

2013-yil 2-sentabr  
N:35 (66940)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## USTOZLIK SAODATI

Eng ulug', eng aziz bayramimiz munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofoti – «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lganlar orasida poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 40-umumta'lim maktabining matematika va informatika fanlari o'qituvchisi Turg'un Rahmatovich Azlarovning ham borligi hukumatimiz tomonidan ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor, ustozlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'zoz-u ehtirom namunasidir.



### ISTIQLOLIM

Ko'zim ko'rgan baxt, iqbolim,  
Tilimdagi shakar-bolim.  
Talpinganim chin a'molim,  
Istiqlolim – istiqbolim.

Bobom-momom orzuisan,  
Orzularning ezguzisan.  
Qalb oynasi – ko'zgusisan,  
Istiqlolim – istiqbolim.

Gullar taqdik chakkamizga,  
Oftob tegdi yelkamizga.  
Iymon qaytdi o'lkamizga,  
Istiqlolim – istiqbolim.

Sen madorim, sen qanotim,  
Yoldor yo'rg'a – duldul otim.  
Mazmunisan gul hayotim,  
Istiqlolim – istiqbolim.

Beklik qulluq o'zbeimga,  
Ko'z tegmasin o'zligimga.  
Xizmat qilay o'z elimga,  
Istiqlolim – istiqbolim.

Keldi davron – hurlik zamon,  
Qolmadi hech dilda armon.  
Yurtim bo'lsin omon-omon,  
Istiqlolim – istiqbolim.

Ravshan ISOQOV

Davomi 2-betda

## BOLAJONLARGA YANA BIR TUHFA

Yangi barpo etilayotgan inshootlar, qad rostlayotgan muhtasham binolar kundan kunga chiroy ochib borayotgan go'zal poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. Ayniqsa, jozibali kuyga monand «raqs tushuvchi» favvoralarni aytmaysizmi?!

Davomi 2-betda





## USTOZLIK SAODATI

(Boshi 1-betda)

Bundan roppa-rosa oltmish yil muqaddam Toshkentning fayzli go'shalaridan biri bo'lgan Ko'kcha mahallasida istiqomat qiladigan 40-maktabning matematika fani o'qituvchisi Rahmatxo'ja aka va Karomatxon opa oilasida uch qizdan keyin orziqib kutilgan go'il farzand dunyoga keldi. Unga yaxshi niyatlar bilan Turg'unxo'ja deb ism qo'yishdi.

1960-yilda 40-maktabning 1-sinfiga qadam qo'ygan Turg'unxo'ja mazkur bilim maskanini a'lo baholarga tamomlab, ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning matematika fakultetiga o'qishga kirdi. O'qishni imtiyozli Diplom bilan tugatgan iqtidorli yosh mutaxassisi ustozlari oliy o'quv dargohida o'qituvchi sifatida ishga olib qolishdi. Biroq, ota mehnat qilgan dargohda uning kasbini davom ettirish istagi Turg'unxo'jani qadrdon maktabiga qaytardi. Mana 35 yildirki, fidoyi muallim 40-umumta'lim maktabida matematika va informatika fanlaridan dars berib kelmoqda. Ustozning qizlari Nazokatxon Vorisova ham ota-bobosi kasbini davom ettirishga ahd qilgan, hozirda shu maktabning informatika fani o'qituvchisi.

Fidoyi ustoz uchun shogirdining yutug'idan-da ertiroq baxt bormi dunyoda?! Turg'un Azlarovning o'nlab iqtidorli shogirdlari respublika va xalqaro olimpiadalarning g'olib va sovrindorlari

bo'lishdi. O'sha kezlarda dunyoda u kishidan-da baxtiyor inson bo'lmagandir.

Yurtimizdagi eng ko'zga ko'ringan fan fidoyilaridan biri bo'lgan Turg'un aka muallifligida 90 dan ortiq ilmiy-metodik risolalar nashr etilgan. Shuningdek, u kishi umumta'lim maktablarining 8-9-sinflari uchun nashr etilgan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» fani bo'yicha dastur va darsliklar mualliflaridan biri. Uning hammuallifligida yozilgan darslik va metodik tavsiyalar qarodosh xalqlar – rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik tillariga ham tarjima qilinib, hozirda respublikamizdagi barcha maktablarda amaldagi darslik sifatida keng miqyosda foydalanilmoqda.

Ustozning fidokorona mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Turg'un Azlarov hukumatimiz tomonidan 1999-yili «Shuhrat» medali, 2006-yili «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil» esdalik nishoni, 2008-yili «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» faxriy unvoni, 2011-yili «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil» esdalik nishonlari bilan taqdirlandi.

Kuni kecha matbuotda ustoz davlatimizning yuksak mukofotiga sazovor bo'lganlarini o'qib, u kishini qutlashga oshiqdik. Suhbatimiz chog'ida «Siz ilgari O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Islom universiteti kabi oliy o'quv yurtlarida talabalarga saboq bergansiz. Nega yana



– Hayotda nimagaki erishgan bo'lsam, volidamning duolari tufayli, – deydi qahramonimiz.

maktabga qaytdingiz?» deya bergan savolimizga ular shunday javob qaytardilar:

– Mening yuz yoshni qoralab qolgan onam borlar. Oilada ularga qarovchilar bo'lsa ham, shaxsan o'zim u kishidan doim xabarador bo'lib turishga odatlanganman. Birinchidan, ishlaydigan maktabim uyimga yaqin joyda, qolaversa, bu go'sha men uchun juda qadrdon. Hayotimda qanday muvaffaqiyatga erishgan bo'lsam, barchasi onamning sidqidildan qilgan duolari ijobati, deb bilaman...

Bu so'zlarni eshitgach, bizda qahramonimizning onalarini ham tabriklash istagi tug'ildi. Ichkariga kirib, onaxon, oila a'zolari, nabiralari bilan tanishdik. Ularni ham davlatimizning yuksak mukofoti bilan qutladik, esdalik uchun suratga tushirdik.

Hurmatli ustozimiz suhbatimiz so'ngida o'quvchilarga shunday tilak bildirdilar:

– Aziz o'g'il-qizlarim, yoshlikdanoq matematika, fizika, informatika kabi fanlarni, chet tillarini chuqur o'rganing, ustozlaringizning har bir o'g'itiga quloq tuting. Oltin teng vaqtigingizni behuda sarflamang. Oldingizga yuksak maqsadlar qo'yib, unga intilib yashang. Tinimsiz qilingan mehnat o'z samarasini, albatta, beradi. «Mehnat – insonni ulug'laydi» degan hikmatning to'g'riligiga men shaxsiy hayotimda amin bo'ldim.

So'zimizning yakunida barchangizni qo'shaloq ayyom – Mustaqilligimizning 22 yilligi va Bilimlar kuni bilan samimiy qutlayman. Yangi o'quv yilida a'lo va yaxshi baholarga o'qishingizga tilakdoshman.

**Biz ham qahramon ustozimizni gazetamizning ko'pming sonli o'quvchilari nomidan muborakbod etamiz.**

**Dilorom HOTAMOVA.**  
Muallif olgan suratlar

ISTIQLOL  
SOLNOMASI  
1991–2013-yillar

2008-yil

Qoraqalpog'iston Respublikasida akademik litseylar hamda kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod – 2008» sport o'yinlari bo'lib o'tdi.

2009-yil

«O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali majlisda Yurtboshimiz poytaxtimizga «Mustaqillik» ordenini topshirdi.

2010-yil

Poytaxtimiz Toshkentda Vatanga sadoqat, fidoyi o'g'lonlarimiz mardligi va jasoratining yorqin timsoli sifatida betakror badiiy majmua – «Vatanga qasamyod» haykali qad rostladi.

2011-yil

O'zbekiston «Save the children» («Bolalarni asraylik») Xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatilayotgan eng ilg'or yetakchi o'n mamlakat qatoriga kiritildi.



– Hamkasbimiz quvonchiga sherikmiz, – deyishadi 40-maktab o'qituvchilari.

(Boshi 1-betda)

## BOLAJONLARGA YANA BIR TUHFÄ

Kishi ko'zini quvnatadigan, chor-atrofga o'zgacha fayz bag'ishlaydigan ana shunday favvoralaridan biri kuni kecha poytaxtimizning Xadra maydonida ochildi. Favvora kichkintoylarga bayram sovg'asi tariqasida qurilgan Bolalar maydonchasidan o'rin oldi.

Qator tashkilotlar ko'magida bunyod etilgan mazkur maydonchadagi turli jonivorlarning haykalchalari, arg'imchog'-u quvnoq balandliklar mahobatli Toshkent davlat sirk binosi bilan hamohang holda o'zgacha

ko'rinish kasb etdi. Endilikda sirk tomoshalariga kelgan kichkintoylar bu maydonchada miriqib o'ynashadi.

Maydonchada qiyqirib arg'imchoq uchayotgan bolakaylarni ko'rib, ularning shodliklariga sherik bo'ldik.



– Mening ismim Fotima-Zahro, – dedi u savolimizga javoban. – Olmazor tumanidagi 157-maktabning 1-sinfiga chiqdim. Bizga Prezident bobomizning sovg'alarini berishdi. Unda chiroyli papka, o'quv qurollari va darsliklar bor ekan. Endi men faqat besh baholarga o'qiyman!

Rang-barang sanoq sharchalarini sanab ko'rayotgan qizaloq bilan tanishgimiz keldi:



– Men Shayxontohur tumanidagi 324-maktabning 1-sinf o'quvchisiman, – dedi shoxdor bug'uning ustiga joylashib olgan Ismoilbek Vohidov. – Ustozimiz biz bolalar uchun yurtimizda ko'p ishlar qilinayotgani haqida so'zlab berdilar. So'ngra, bayram munosabati bilan onam meni shu maydonchaga olib keldilar. Endi bo'sh vaqtlarimda bu yerga kelib, arg'imchoq uchaman...

Tilagimiz, jonajon diyorimizda ana shunday ko'ngilochar maskanlar ko'payaversin!

UZODA tayyorladi.  
Suratlar muallifi: ZUHRA

# BAYRAM KELTIRGAN QUVONCH

E'zo

Yu. ABDULLAYEV olgan suratlari



Kuni kecha Istiqlolning 22 yillik bayrami munosabati bilan korxonada ajoyib tadbir o'tkazildi. Ishlab chiqarishda samarali mehnati bilan jamoadoshlariga o'rnak bo'layotgan bir guruh matbaa xodimlari munosib taqdirlanib, ularga qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

*Fidoi noshirlarimizni biz ham chin dildan tabriklaymiz!*

Aziz o'quvchilar, ko'plab badiiy kitoblar, darsliklar-u daftarlari, shuningdek, «Tong yulduzi», «Gulxan», «Klass», «G'uncha» kabi sevimli nashrlaringiz chop etiladigan «O'zbekiston» NMIU bugungi kunda o'zining nufuzi bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham alohida e'tirof etilayotgan matbaa korxonalaridan biri ekanligini bilasizmi? Korxonada yuksak darajadagi moddiy-texnika bazasi yaratilgani, har bir ishchi xodimga bo'lgan yuksak e'tibor bu yerda chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatida asosiy omil bo'lmoqda.

O'z muxbirimiz.



# TIRISHQOQ QIZ AZIZA

Tumanimizdagi 55-ixtisoslashtirilgan maktabning 8-sinf o'quvchisi Aziza Ayapbergenova juda tirishqoq qiz. U maktab, tuman va respublika miqyosida o'tkaziladigan turli tanlov va bellashuvlarda muntazam qatnashib, sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Aziza o'tgan o'quv yilida maktabida o'tkazilgan «Orasta qizlar» tanlovida qatnashib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, u voleybol to'garagining eng faol a'zolaridan. Ustozi Merigul Allaqovadan voleybol o'yinini ishtiyoq bilan o'rganyapti. Yaqinda jamoasi bilan «Yoz-2012» sport musobaqasida qatnashib, sovrinli 2-o'ringa loyiq deb topildi. Tirishqoq dugonam bu yil informatika fanidan «Bilimlar bellashuvi»da qatnashib, tumanda 1-, Nukus shahri miqyosida

2-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Bunday muvaffaqiyatni qo'lga kiritishimda informatika fani o'qituvchimiz Saltanat opa Seytazarovaning mehnatlari beqiyos, – deydi Aziza ustoziga minnatdorchilik bildirib.

Biz ham tirishqoq qiz Azizaga kelgusi o'qishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz.

**Ayjamal KARAMATDINOVA,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Kegeyli tumanidagi

11-umumta'lim maktabi o'quvchisi



# TA'TIL ZAVQI

Yozgi ta'tilda oila a'zolarimiz bilan birgalikda tog' yonbag'rida joylashgan «Sumcha» oromgohida miriqib dam oldik. U yerda olam-olam taassurotlar bilan qaytdik.

Eh-he, qay birini so'zlay: tiniq, musaffo osmon, huzurbaxsh mayin shabada, osmon to'la yulduzlar... Ayniqsa, oromgoh yonidan oqib o'tuvchi sharqiroq soy dillarga zavq bag'ishladi. Toshdan toshga urilib oqayotgan zilol suvlar ruhimizga tetiklik ulashdi. Soyning suvi shu qadar tiniqlik, tubidagi toshlarning rangi, shakli va o'lchami yaqqol ko'rinib turadi. Tong saharda bizni qushlarning jo'rovoy sayrashini uyg'otadi. U yerda ajib manzara – quyoshning tog' ortidan asta bosh ko'tarishini zo'r ishtiyoq bilan tomosha qildik. Oromgohdan kuchimizga kuch qo'shilib, miriqib dam olib qaytdik.

Men shunday go'zal, maftunkor, jannatmakon diyorda tug'ilib voyaga yetayotganimdan behad baxtiyorman.

**E'zoza USMONXO'JAYEVA,**  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
34-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi



3

Istiqlolimizning 22 yilligiga bag'ishlab Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi 20-Bolalar musiqa va san'at maktabida «Kamolot» YOIH Kengashi tashabbusi bilan tuman ichki ishlar bo'limi, tuman xalq ta'limi muassasalarini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi hamda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hamkorligida «Shu aziz Vatan barchamizniki!» shiori ostida yoshlar festivali bo'lib o'tdi.

# SHU AZIZ VATAN BARCHAMIZNIKI!

Festivalda ikki yuzdan ziyod o'quvchi-yoshlar sportning mini futbol, stol tennisi, shaxmat-shahka, yengil atletika turlari bo'yicha bellashdilar.

Tadbir doirasida qiziqarli tanlovlar va o'quvchilar qo'li bilan yasalgan hunarmandchilik buyumlari ko'rgazmasi ham tashkil etildi.

– Bunday festivallarning tashkil etilishi yoshlarimiz qalbida ona Vatanga bo'lgan mehruhubbati tuyg'ularini shakllantirishiga shubhamiz yo'q, – deydi «Kamolot» YOIH tuman Kengashi raisi In'omjon Qosimov.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko'ra yengil atletika bo'yicha 31-umumta'lim maktabi o'quvchisi Ravshanbek Abdurahmonov, shaxmat-shahka bo'yicha Oyatillo Abubakirov va Zuhra Xoldorova, stol tennis bo'yicha Dilyorbek Xolmatov, Maftuna Nabiyeva birinchi o'ringa loyiq deb topildilar.

Mini futbol bo'yicha 32-, hunarmandlik ko'rgazmalari bo'yicha 30-umumta'lim maktabi jamoalari g'oliblikni qo'lga kiritishdi va «Faxriy yorliq» hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Festival so'ngida bo'lib o'tgan konsert dasturi barchada katta taassurot qoldirdi.

**Umidjon MAMARASULOV,**  
Andijon viloyati



Mohira Muhammadjonova chizgan rasm

# ENG SEVIMLI GAZETAM

«Tong yulduzi» mening eng sevimli gazetam. Uning rang-barang sahifalaridagi

maqolalarni qayta-qayta o'qib qiçaman.

Ayniqsa, «Keling, ertak o'qiyimiz», «Mutolaa», «Dolzarb mavzu», «Istiqlol ilhomlari» singari ruknlar ostida chop etilayotgan maqolalar, hikoya, she'r va ertaklar meni bee'tibor qoldirmaydi. Gazetada e'lon qilingan qator tanlovlarda yuzlab tengdoshlarimning katta qiziqish bilan ishtirok etishlari juda quvonarli. Biz sinfdoshlarim bilan 2014-yil uchun ham mazkur gazetaga obuna bo'lishga kelishib oldik. Fursatdan foydalanib, yangi o'quv yilida barchaga omad yor bo'lishini istayman.

**Gulchiroy ZOIROVA,**  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi  
20-maktab o'quvchisi



Odatdagidek,  
yangi ish kunini  
boshlagandik.  
Tahririyatimizning  
xizmat telefoni  
jiringlab qoldi.  
Go'shakdan  
nuroniy  
onaxonning  
muloyim ovozi  
eshitildi:



## BAYRAM TABRIGI

– Kechirasiz, bu «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatimi?

– Xuddi shunday. Assalomu alaykum, onaxon, qanday xizmatlar bor edi?

– Men, mehnat faxriysi, 40 yillik ish tajribasiga ega muallima, «Shuhrat» medali sohibasi, 85 yoshli Fariza aya Rustamova bo'laman. Qo'ng'iroq qilishimdan maqsad, gazetangiz orqali yurtimizning barcha o'g'il-qizlarini yaqinlashib kelayotgan eng ulug', eng aziz bayramimiz – Vatanimiz mustaqilligining 22 yilligi hamda yangi o'quv yili bilan samimiy qutlamoqchiman. Ularga sog'lik, salomatlik, o'qish va ishlarida ulkan zafarlar tilayman.

«Tong yulduzi» nabira-yu abiralarimning eng sevimli gazetasi

hisoblanadi. Har yili obuna mavsumi boshlanishi bilan birinchi navbatda ushbu nashrga yozilishadi va bir yil mobaynida uning sahifalarida beriladigan maqolalar, she'r va hikoyalar, qiziqarli ma'lumotlardan bahramand bo'lishadi. Bu esa ularning maktabda a'lo o'qishlariga yordam beradi.

Fursatdan foydalanib, sizlarni ham bayram bilan tabriklayman, ijodiy ishlaringizga rivoj tilayman.

– Onaxon, e'tiboringiz uchun rahmat. Sizni ham ko'pmining sonli o'quvchilarimiz nomidan chin dildan qutlaymiz.

Ayamizdan telefon orqali manzillarini olib, ular bilan uchrashdik. Nevaralari bilan tushgan suratlarini olib qaytdik.

**BONU suhbatlashdi**

## YIGIRMA IKKI MUSHAK

Har yili Mustaqillik bayrami tantanalari yakunida tinch, osuda osmonimiz rang-barang mushaklar yog'dusiga to'ladi. Bu manzaradan zavqlanmaydigan hamyurtimiz topilmasa kerak.



Bolajonlar, ana shu mushaklar necha marotaba otilishini bilasizmi? Biz har yili uka va singillarim bilan birgalikda mushaklarni sanashdan charchamaymiz. Chunki Istiqlolimiz necha yoshda bo'lsa, shuncha mushak otilishini yaxshi bilamiz-da. Ana shu qizil, yashil, sariq rangdagi mushaklar bayramimizga yanada ko'tarinkilik bag'ishlaydi.

Kuni kecha bo'lib o'tgan bayram shodiyonalari otilgan 22 ta rango-rang mushaklar osmon bag'rini yoritgandek qalblarimizni ham nurafshon ayladi. Atrof bolajonlarning sho'x-shodon kulgilariga to'lib ketdi...

Ha, jonajon O'zbekistonimizga bayram-u shodiyonalar juda yarashadi, nima dedingiz, tengdoshim?!

## QALBGA G'URUR BAG'ISHLAGAN SO'Z

Ona Vatan! Bu so'zni tilga olganimizda, ko'z o'ngimizda beg'ubor, moviy osmon, hosildor, saxiy zamin, bepoyon dalalar, purviqor tog'lar namoyon bo'ladi. Shuningdek, biz tug'ilgan, kindik qonimiz to'kilgan go'sha, yayrab unib-o'sgan xonadonimiz, qadrdon maktabimiz, obod shahar va tumanlarimiz, ozoda va fayzli mahallalarimiz, qolaversa, buyuk ajdodlarimiz, mehribon ota-onamiz, qadrdon ustozlarimiz, jonajon do'stalarimiz siyмосi gavdalanadi. E'tibor bering-a, keng qamrovli shu birgina so'z zamirida bir olam ma'no mujassam.

Bugun barchamiz uchun aziz, taqdirimiz va baxtimiz timsoli bo'lgan mustaqil O'zbekistonimiz 22 yoshni qarshiladi. Tarix uchun shu qisqa fursatda diyorumiz shu darajada ravnaq topdiki, buni hatto chet elliklar ham hayrat va hayajon bilan e'tirof etishmoqda. Niyatimiz, Vatanimiz yanada gullab-yashnasin – hayotimiz bundan-da farovon, tinch-totuv va obod bo'lib, har kunimiz bayram, shodiyona, tantanalalar bilan rang olsin.

Vatan so'zi har bir qalbga g'urur bag'ishlasin!

**Nodira ARSLONOVA,**  
P.F. Borovskiy nomidagi  
tibbiyot kolleji o'quvchisi



Ingliz tilini o'rganamiz

## MUSTAQILLIK DARSII

Qadri o'quvchilar! Mana, yangi o'quv yilini ham boshlab oldingiz. Bugungi Mustaqillik darslarida ustozlaringiz Sizga Vatan, Istiqlol, tinchlik, iftixor, ona yurt qadri kabi tuyg'ular haqida so'zlab berishgan bo'lsa, ajabmas! Biz esa sizga ushbu so'zlarning ingliz tilidagi tarjimasini e'tiboringizga havola qilib, so'z boyligingizni oshirmoqchimiz. Zero, niyatimiz faqat ezgulik: Sizning dunyodagi tengdoshlaringiz bilan bemaol tillasha olishingizni, yurtimizga xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan mehmonlarga faxr va iftixor bilan Vatanimiz haqida so'zlab berishingizni istardik!

Native land – ona Vatan

Independence – mustaqillik

Blue sky – moviy osmon

Peaceful – osuda

Peace – tinchlik

Holiday – bayram

Merry – shodiyona

Be proud (of) – iftixor (qilmoq)

Be proud (of) – g'ururlanmoq

Value – qadr-qimmat.

Great momentous – ulug' ayyom



ZUBAYDA

2-sentabr 2013

# KATTA BAYRAMNING KICHIK ISHTIROKCHILARI

Z. NISHONOVA o'lgan surat



Har yili Mustaqillik bayrami tantanalarini oynaqi jahon orqali tomosha qilganimda, bolalarning chiqishlarini hayajon bilan kuzataman. Chindan ham xalqimiz bolajon, bayram-u to'ylarini ham avvalo, bolasining o'ynab-kulishi, yayrashini uchun o'tkazadi, nazarimda.

Ha, bolalarning sho'x kuy-qo'shiqlari, qizaloqlarning zavqli raqslarisiz bayram o'tarmidi? Xalqimizning eng ulug' ayyomiga yanada fayz kiritgan ana shunday yosh iqtidor egalari bilan suhbatlashishga oshiqdik. Butun dunyoga

to'g'ridan-to'g'ri namoyish etiladigan shunday ajoyib bayramda ishtirok etish baxtiga erishgan Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi o'quvchilari Shahnoza Rizayeva, Asal Abduvoitova kabi jazzi raqqosalarining bugun quvonchi cheksiz. Shahnoza bayramdagi ishtiroki orqali Vatanni sevish, milliy raqs va an'analarimiz bilan g'ururlanish tuyg'usini his qilganini faxr bilan ta'kidladi. Navoiy shahridagi 2-maktab o'quvchisi Behzod Jo'ramurodov bayramda o'zi a'zo bo'lgan «Flesh-dans» guruhi bilan zamonaviy raqslardan birini ijro etishibdi.

– Mustaqillik tantanalarida aynan bizning guruhimiz qatnashgani, bayram bahona so'lim poytaxtimizga tashrif buyurganimiz men uchun ikki karra baxt, – deydi Behzod.

Biz esa bolalarning chiqishlari ko'tarinki ruhda, go'zal ko'rinishda o'tishi uchun astoydil mehnat qilgan ustozlarga yuzlandik. Barchamiz yaxshi taniydigan «Bulbulcha» dastasining bosh baletmeysteri, «Mehnat Shuhrati» ordeni sohibasi Noila opa Ortiqova mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab bolalar chiqishlarida bosh-qosh ekanlar.

– Yildan yilga iqtidorli bolalarimiz safi kengayib, bu tantana ularning iqtidorlarini namoyish etishlari uchun eng katta imkoniyat bo'lmoqda, – dedi Noila opa shogirdlariga ishora qilib.

Bu yilgi shodiyonadagi bolalar chiqishlariga Shuhrat aka To'xtasimov boshchilik qilib, alohida musiqa bastalandi, qo'shiq va raqslar mavzusi Vatan, baxtiyor bolalik, maktab haqida bo'ldi. Raqslarni sahnalashtirishda Yelena Nodirovaning xizmatlari katta bo'ldi...

San'atsevar o'g'il-qizlar bilan xayrlashar ekanmiz: «Voy, bizni gazetaga yozasizmi?» deyishdi kamtarlik bilan. «Bo'lmasam-chi, bayram tomoshalaridagi chiqishlariga barcha hamyurtlarimiz havas qilgan sizdek Istiqlol farzandlari haqida har qancha yozsak oz», dedik mamnuniyat bilan.

Qani endi bolalikka qaytib, men ham shu tengdoshlaringiz kabi shunday katta bayramning kichik ishtirokchisiga aylansam! Afsuski, vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi. Ammo bunday imkoniyat Sizlarda bor, aziz o'quvchilar! Beg'ubor orzularingizni amalga oshirishga intiling! Shunday yuksak marralar sizga-da nasib etsin!

Sayyora QODIROVA

Kasbimiz taqozosi bilan yoshlar davrasida bo'lamiz, ularning orzu-niyatlari bilan qiziqamiz. Maktab davridanoq o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga erishish yo'lida tinmay izlanayotgan o'g'il-qizlarimiz borki, ular haqida ko'proq yozgimiz, tengdoshlariga ibrat qilgimiz kelaveradi...

qo'lma-qo'l qilib o'qishdi, taniqli adiblar nazariga tushdi. Bunday e'tibordan ruhlangan Malika yana she'rlar mashq qila boshladi. 2012-yili eng sara she'rlaridan jamlangan «Vatan madhi» nomli ikkinchi she'riy to'plami chop etildi.

Mazkur yilimiz ham uning hayotida o'chmas iz qoldirsa, ajabmas.

## Bugunning yoshlari

gan bu so'zlarning samimiyligiga shubhamiz yo'q. Zero, yangicha g'oya va tamoyillar asosida kamol topayotgan bugungi yoshlarimiz shunday fikrlaydi.

Kelajakda ijodkor-huquqshunos bo'lish niyatida puxta bilim olayotgan Malikabonuga bundan-da yuksakroq parvozlar tilaymiz.



TAHRIRIYAT

# YURTIMNING ERKA QIZI

Samarqandlik yosh ijodkor Malikabonu Tolliboyeva ana shunday intiluvchan yoshlarimizdan biri. Oqdaryo tumanidagi 18-umumta'lim maktabining quyi sinflarida tahsil olib yurgan kezlaridanoq she'r va hikoyalar yoza boshlagani uchun uni «Shoira qiz» ham deyishardi. Keyinchalik uning ijod namunalari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Gulxon», «Zarafshon» kabi ko'plab gazeta va jurnallar sahifalarida ko'rinishga boshladi. O'z iqtidor-u salohiyatini sinovdan o'tkazish maqsadida turli ko'rik-tanlovlarda ishtirok etdi. 2009-yilda «Mening birinchi kitobcham» ko'rik-tanlovida 1-o'rin sohibasi bo'lib, hayotidagi ilk muvaffaqiyatini qo'lga kiritdi. 2010-yilda «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining laureati bo'ldi. 2011-yil ham Malikabonu uchun



omadli keldi. Do'rmon ijod uyida bo'lib o'tgan seminarda tajriba orttirdi. «Oqdaryoning qiziman» nomli ilk she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Bundan ustozlari, yaqinlari behad quvonishdi. Ayniqsa, mehribon buvijonining boshi ko'kka yetdi. Tengdoshlari kitobchasini

## QIZI

Viloyat olimpiadasida ona tili va adabiyot fanidan 1-o'rin sohibasi bo'ldi.

– Qo'lga kiritgan ozmi-ko'pmi yutuqlarim uchun ota-onamdan, buvijonimdan, ustozlarimdan minnatdorman, – deydi Samarqand davlat universiteti qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchisi Malikabonu Tolliboyeva. – Qolaversa, Istiqlol sharofigi bilan biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar tufayli iqtidor-u salohiyatimizni nafaqat o'z yurtimizda, balki o'zga yurtlarda ham namoyon etish imkoniga ega bo'lganimizdan behad quvonaman. Buvijonim bot-bot ta'kidlaganlaridek, bu buyuk ne'matning qadriga yetishga, uni ko'z qorachig'imdek asrab-avaylashga so'z beraman...

Chin dildan, hayajon bilan aytilayot-

## O'ZBEKISTON

Makonim bog'-u bo'ston,  
Go'zal yurt O'zbekiston.  
Jannatmakon bir diyoy,  
Bunda baxt, iqbol bisyor.

Madhingni dildan jo'shib,  
Kuylayman qalbm qo'shib.  
Qutlasam deyman shoshib,  
Buloqdek to'lib-toshib.

Yurtim, erka qizingman,  
Porlagan yulduzingman.  
Sen chamanim, gulshanim,  
Baxtim, shodligim manim.

Malikabonu  
TOLLIBOYEVA

## EZGULIK BO'STONIN LOLALARIMIZ

Vatanim tuprog'in surtib ko'zimga,  
Yurak tuyg'ularim jamlab so'zimga,  
Bir kalomni shior qildim o'zimga:  
Ezgulik bo'stonin lolalarimiz,  
Shu aziz Vatanning bolalarimiz!

Yurtlar ko'p, lek Vatan tanho, suyuqdir,  
Vatan Ona kabi bag'ri kuyukdir,  
Vatan yagonadir!  
Vatan buyukdir!  
Ezgulik bo'stonin lolalarimiz,  
Shu aziz Vatanning bolalarimiz!

Yurt obod, bog'-rog'lar yo'llarimizda,  
Gul yashnar hattoki cho'llarimizda,  
Kelajak bizlarning qo'llarimizda,  
Ezgulik bo'stonin lolalarimiz,  
Shu aziz Vatanning bolalarimiz!



Aziza SHOKIROVA,

Jizzax shahridagi 11-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi


## BU O'LKA

Bu olamda bir o'lka bor,  
Ta'rifi til ojiz.  
Bizlar uni Vatan deya,  
Chin yurakdan sevamiz.

Gulzorining qiyosiga  
Qiyos izlab tolgaymiz.  
O'xshashini topolmasdan,  
Lol-u hayron qolgaymiz.

Tongda shafaq o'zgachadir,  
Kunning fayzi boshqacha.  
Bizlar uni e'zozlaymiz,  
Har bir xor-u xasgacha.

«Afrosiyob» yangi davr,  
Yangi imkon daragi.  
Jannatmakon O'zbekiston,  
Yer yuzining yuragi.




Nilufar MIRZADAVLATOVA,

Toshkent sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

## DURDONAM VATAN

Kezar edim gulzorlar aro,  
Qo'limda gul, qalb to'la g'urur.  
Ey aziz yurt, sajdagoh Vatan,  
Iqbolingdan ko'ngillar masrur.

Erka qizing bo'lib bag'ringda,  
Bog'laringda shodon chopaman.  
Ajdodlarga bo'lib munosib,  
Hur bag'ringda kamol topaman.



Mehnatsevar g'allakorlaring,  
Rizq-u ro'zimiz xirmonin uyar.  
Paxtakoring dalaga boqib,  
Shukronalik hissini tuyar.

Hech bir yurtdan emasdirsan kam,  
Bugun seni dunyo oldi tan.  
Qiyosi yo'q yagonam o'zing,  
Jonajonim, durdonam Vatan!

Diyora MURODOVA,  
Farg'ona viloyati, Qo'shtepa  
tumanidagi 33-umumta'lim  
maktabining 6-sinf o'quvchisi

## YURTIM

Ko'zimda porlagan ilk uchqun o'zing,  
Ko'nglimni ko'klarga chorlagan orzu,  
Boshimni silagan, baxtim tilagan,  
Men senda tug'ildim – mening baxtim shu.

Duo-yu jonimni qilgan zabonim –  
O'zbekim, o'zligim, O'zbekistonim!

Qarshingda bosh egib turay bir umr,  
Ishonching sharaf deb ko'ksimga ilgum.  
Shu mushtdek yuragim har zarbasida,  
Sen-la tirikligim his etib turgum.



Tomirinda oqqan ey, qaynoq, qonim,  
O'zbekim, o'zligim, O'zbekistonim!

Omadim – men sening  
bolang bo'lganim,  
Buyuk ajdodlarga mos avlod bo'lib,  
Tuprog'ing gardini avaylab asray,  
Bayrog'ing ko'taray  
zuryoding bo'lib.

Dur-u gavharlarga tengsiz  
in'omim –  
O'zbekim, o'zligim, O'zbekistonim!

Madina QODIROVA

## ZO'R KITOB O'QIDIM...

Qadrli do'stlar! Yozgi ta'til  
kunlaringizni qanday o'tkazdingiz?  
Kim qanaqa foydali ishlar bilan  
shug'ullandiz? Ko'proq badiiy kitoblar  
o'qigandirsiz?



O'zim haqimda to'xtaladigan bo'lsam, ta'til chog'ida to'garaklarga qatnab, ingliz, koreys va rus tillarini o'rganishni boshladim. Yana ko'plab badiiy kitoblar o'qidim. Bugun sizlarga menga eng manzur bo'lgan asar haqida hikoya qilmoqchiman. Bu O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub «Ikki eshik orasi» asaridir. Men buni 7-sinfda tahsil o'layotgan kezlirimda ham o'qib chiqqandim. Lekin bolalik ongim bilan faqat kichik Muzaffarning hikoyalarinigina tushuna olgandim, xolos. Biroq, yillar o'tib bu kitobni qayta varaqlaganimda, butunlay o'zgacha taassurot oldim. Asarda Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi mudhish voqealar haqida so'z boradi. Asosiy qahramonlar – Kimsan, Robiya, Shomurod, Oqsoqol va boshqalar. Asarda o'zbek xalqining urush yillaridagi o'ta og'ir va ayanchli turmush tarzi ta'sirli bo'yoqlar orqali ifodalangan. Shuningdek, qatag'on yillarida begunoh insonlarga yetkazilgan nohaq zulmlar ham o'quvchi qalbini larzaga soladi. Asarni o'qigan har bir kitobxon beixtiyor bugungi dorilomon kunlarda yashayotganiga shukronalar aytadi. Zero, Istiqlol, hurlik va tinchlik o'z-o'zidan kelgan emas. Kitobdagi qahramonlar ham shunday yashashni orzu qilishgan va unga erishishgan.

Asarning o'ziga xos yana bir jihati shundaki, undagi voqealar ketma-ketligi turli qahramonlar tilidan hikoya qilinadi, bu esa o'quvchiga to'g'ri xulosa chiqarishga imkon yaratadi. Chunki har bir qahramonning o'z haqiqati mavjud. Shunday obrazlar jumlasiga Shomurod, Kimsan, Ra'no, Munavvar, Muzaffarni kiritishim mumkin.

Kitobda yaxshi insonlar obrazi shunchalik samimiylik bilan yaratilganki, biz bunday qahramonlar tasviri orqali qo'shnimiz, qarindoshimiz, do'stimiz timsolini ko'rishimiz mumkin. Sababi, ular juda jonli va haqqoniy ochib berilgan. Masalan, Oqsoqol, Qora amma va hokazolalar.

Bir so'z bilan aytganda, sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning bu asari ham barcha asarlari kabi jonli, haqqoniy va hayotiy bo'yoqlar orqali tasvirlanganligi bilan kishi e'tiborini tortadi. Bilimdon, zukko tengdoshlarimga ham bu asarni o'qib chiqishni tavsiya qilgan bo'lardim. Bunday durdona asarlar ulug' ne'mat bo'lgan Mustaqillikni asrab-avaylashimizga, bugungi farovon kunlarimizning qadriga yetib, uning zamirida ne-ne mashaqqatlar chekilganligini anglab yetishimiz uchun teran fikrlashimizga yordam berishi shubhasiz!

Gulchehra UBAYDULLAYEVA,  
O'zbekiston davlat jahon tillari  
universiteti qoshidagi 3-akademik  
litsey o'quvchisi.  
MANZURA olgan surat

# NANKINDAN SAKKIZ MEDAL

*Xitoyning Nankin shahrida o'smirlar o'rtasidagi II Osiyo o'yinlari nihoyasiga yetdi. Ikkinchi bor o'tkazilgan ushbu nufuzli sport anjumanida qit'aning 45 davlatidan 17 yoshgacha bo'lgan 2314 nafar ishtirokchi sportning 16 turi bo'yicha o'zaro g'oliblik uchun bahs olib borishdi. Mazkur qit'a o'yinlarida 61 nafar sportchimiz 10 ta sport turi bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqalarda qatnashdilar.*



Umiddi yosh sportchilarimiz yurtimizda ularga ko'rsatilayotgan yuksak g'amxo'rliklarga javoban ko'plab medallarni qo'lga kiritib qaytishdi.

Ayniqsa, dunyoga dong'i ketgan o'zbek dzyudo maktabining yosh vakillari jamoamiz hisobiga 5 ta medalni qo'shib qo'yishdi. Xususan, 66 kg. vazn toifasida Ulug'bek Otamurodov, -80 kg. vazn toifasida Muhiddin Mirzayorov kumush medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 63 kg. vazn toifasida Tursunpohsha Nurmetova, 44 kg. vazn toifasida

Diyora Keldiyorova bronza medali sohibasiga aylanishdi. Eng quvonarlisi, -55 kg. vaznda gilamga chiqqan yosh dzyudochimiz Doston Ro'ziyev turnir davomida barcha raqiblarini ortda qoldirgani holda o'zbekistonlik sportchilar orasida birinchi bo'lib o'smirlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlarining g'olibi degan sharafli nomga sazovor bo'ldi va o'z vazn toifasida Osiyoning birinchi raqamli polvoniga aylandi.

Shuningdek, o'n metr masofadan pnevmatik to'pponchadan o'q o'tish bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada Rifat Girfanov, taekvando bo'yicha 62 kg. vazn toifasida G'anijon Xurliboyev, 55 kg. vazn toifasida Dinaraxon Mamatibragimova ham bronza medalini qo'lga kiritishdi.

Sa'dullo TURSINOV

# CHEMPION BO'LAMAN

O'quv yili tugab yozgi ta'til boshlangach, tog' etagidagi qishloqlardan birida yashaydigan bobomning uyiga yo'l oldim. U yerining tabiati go'zal, havosi musaffo.

Bir kuni qishloqda katta kurash musobaqasi bo'lib o'tdi. Bellashuvda ishtirok etish uchun bir-biridan kuchli, alp polvonlar yig'ilishdi. Ularni ko'rib, rosa havasim keldi. Axir qaysi o'g'il bola polvon bo'lishni orzu qilmaydi, deysiz?! Bir payt qarasam, qo'shni qishloqlik «yengilmas» nomi bilan tanilgan Eshmat polvon bilan bobom maydonga chiqib kelyapti. Bobomni qishloqdagi kurash ishqibozlari «Kuragi yerga tegmagan polvon», deya alqashadi.



Bellashuv boshlanib ketdi. Ishqibozlar ikkiga bo'linib, bobom va Eshmat polvonni qo'llab-quvvatlab turishdi. Bir gal Eshmat polvon bobomni biroz bo'shatgan edi, paytdan foydalanib uni yerga yiqitdi. «Halol», deya hakam qo'lini baland ko'tardi. Yig'ilganlarning bari bobomning raqibiga qo'llagan usulidan hayratda qolishdi.

Uyga qaytayotganimizda, men bobomdan:

– Kurash tushishni qayerda o'rgansiz? – deya qiziqib so'radim.

Bobom kulib:

– Bu oilaviy an'ana. Katta buvam vaqtida nomdor polvon o'tgan. Sen ham hozirdanoq kurash bilan shug'ullansang, kelajakda zo'r polvon bo'lasan, – dedilar.

Ta'til kunlarimdan unumli foydalanib, bobomdan ushbu sport turining ba'zi sir-asrorlarini o'rganib qaytdim. Hozirda maktabimizda ochilgan kurash to'garigiga muntazam qatnashyapman. Kelajakda men ham Kamol Murodov, Akobir Qurbonov kabi jahon chempioni bo'lib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilmoqchiman.

Shahobiddin ORTIQOV

*Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanida so'lim va bahavo Nanay qishlog'i bor. Viloyat markazidan 63 kilometr uzqlikda joylashgan mazkur go'shada 4 ta zamonaviy umumta'lim maktabi, 3 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ta Bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat yuritmoqda. Qishlog' yoshlarining ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar shahardagidan sira qolishmaydi. Birgina 39-Bolalar va o'smirlar sport maktabini olaylik.*



**NANAYLIK YOSH SPORTCHILAR**

2009-yildan faoliyatini boshlagan bu sport maktabida dastlab og'ir atletika, belbog'li kurash va stol tennisi bo'limlari ochilgandi. O'shanda 7 nafar murabbiy 190 nafar o'g'il-qizga yuqoridagi sport turlaridan mashg'ulotlar o'tishardi. Yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish borasida olib borilayotgan samarali chora-tadbirlar tufayli bugun qishloq yoshlari sportning futbol, badiiy gimnastika, taekvando, boks kabi turlari bilan ham muntazam shug'ullanish imkoniga ega bo'ldilar. Ayni kunlarda ushbu dargohda 712 nafar yosh sportchilar 27 nafar murabbiylardan sport sir-asrorlarini puxta o'zlashtirmoqdalar. Mirzavali Abdurazzoqov,

Muxtor Shokirboyev, Dilfuza To'layeva singari tajribali murabbiylarning yoshlarga berayotgan nazariy va amaliy saboqlari tufayli sport maktabida tuman, viloyat, respublika va xalqaro musobaqalar g'oliblari kamol topmoqda.

– Men shu yil og'ir atletika bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ishtirok etib, oltin medalni qo'lga kiritdim, – deydi umiddi sportchilardan biri Gulyora Rahmonova. – Tengdoshlarimdan Akmal Ahmadjonov, Gulchehra

Ergashboyeva, Nodira Hayitmirzayeva, Mohigul Tursunova, Sardor Olimjonov, Faxriddin Sayfiddinov, Kibriyo Muxtorova, Mashhura Rayimboyeva, Nilufar Mirzaabdurayimova ham o'z vaznlari bo'yicha faxrli o'rnlarni egallashdi. Kelajakda jahon chempionati, olimpiada o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritib, yurtimiz nomini dunyoga yoymoqchiman.

– Qishlog'imizda badiiy gimnastikaga qiziquvchilar soni tobora ortib boryapti, – deydi murabbiylardan biri Dilfuza To'layeva. – Sportning bu turida qizlar nozik ritmik harakatlarni hali suyagi qotib ulgurmasdan, ya'ni 3–4 yoshidan o'zlashtira boshlashi lozim. Biz maktabimizga tashrif buyurayotgan otanalarga, avvalo, shuni tushuntiramiz. Chunki har bir bola bizning kelajagimiz, ularning sog'lom va barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun biz kattalar mas'ulmiz.

Bolalikning eng beg'ubor onlarini shirin orzu-havaslar og'ushida o'tkazayotgan va kelajak sari dadil qadamlar tashlayotgan nanaylik yosh sportchilar orasidan kelajakda jahon chempionlari yetishib chiqishiga umid qilamiz.

Kamola NOSIROVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Bolalar va o'smirlar adabiyoti Kengashi, Respublika bolalar kutubxonasi, «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida Istiqlolning 22 yilligi hamda «Obod turmush yili» munosabati bilan an'anaviy «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Tanlovga kelgan ijodiy ishlarda ona Vatan, Istiqlol madhi kuylandi, obodlik, bunyodkorlik ishlari, Mustaqillik bergan imkoniyatlar, yaratilgan, yaratilayotgan sharoitlar qalamga olindi.

Tanlovga kelgan 100 dan ziyod ijodiy ishlar hakamlar hay'ati tomonidan ko'rib chiqilib, quyidagi o'quvchilar ko'rik-tanlov g'oliblari deb topildi:



## «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovi yakunlandi

### INSHOLAR bo'yicha:

1-o'rin – Madina TO'LANOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 36-maktabning 8-sinf o'quvchisi;

2-o'rin – Mahbuba ABDULAZIZOVA, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 72-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi;

3-o'rin – Yulduz ABDURASHIDOVA, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanining Vang'oz shaharchasidagi 12-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

### RASMLAR bo'yicha:

1-o'rin – Ozoda ESANOVA va Elbek ESANOV, Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 33-maktab o'quvchilari;

2-o'rin – Asadbek AHMEDOV, Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 10-maktabning 1-«B» sinf o'quvchisi;

3-o'rin – Nilufar QAYPANOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-maktabning 3-sinf o'quvchisi.

### SHE'RLAR bo'yicha:

1-o'rin – Komila SHOYIMOVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-maktabning 8-sinf o'quvchisi;

2-o'rin – Mahfuza PO'LATOVA, Navoiy shahridagi 15-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi;

3-o'rin – Muyassar KELDIYOROVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 9-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi.

Shuningdek, tanlovning barcha ishtirokchilari «Faxriy yorliq» bilan taqdirlanadilar.

## «BILIMLAR MASKANI» KROSSVORDI



15 3 8 9 3 4 \* 16 1 14 6 2 8 \* 10 7 6 14 3 5 2 , 4 1 6 3 6 3 11 \* 17 12 3 \*

2. 7

11 1 1 8 4 2 13 1 12 \* 1 5 1 19 \*

10 5 2 5 18 1 4 \* 7 4 \* 2 24 23 7 9 2 22 21 - 20 1 9 12 7 , 2 11 3 6 6 1 13

Diagram showing a crossword puzzle grid with numbers and shaded areas. The grid is 15 columns wide and 19 rows high. The words are: 1. IJODKORLAR, 2. O'SIMLIK, 3. UMUMIY TA'LIMNING ILK BOSQIHI, 4. KOMPYUTER EKSPANIDA MATNNI AKS ETDIRUVCHI MOSLAMA, 5. SO'Z TURKUMI, 6. ENG BIRINCHI DARSLIK, 7. ADABIY JANR, 8. OTNING KIMGA OIDLIGI SHAKLINI YASOVCHI QO'SHIMCHA, 9. RASM CHIZILADIGAN DAFTAR, 10. ENG YUQORI BAHO, 11. QARAMA-QARSHI MA'NODAGI SO'ZLAR, 12. AXLOQ HAQIDAGI TA'LIM FANI, 13. MATNNI AYTIB TURIB O'TKAZILADIGAN YOZMA ISH.

### Diagonal bo'yicha chapga:

2. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga qarab qo'yiladigan ball.
3. Matematika bo'limi.
6. O'quvchilarning o'zlashtirishini aniqlash, sinov.
12. O'quv qo'llanma.
- Eniga: 4. O'qib berilgan matn asosidagi yozma ish.
8. Bilimlar manbai.
13. Teoremani isbotlashda foydalaniladigan yordamchi teorema.
14. Matematik hisobning har bir turi.
16. Gapdagi bosh bo'laklardan biri.
18. Gap bo'lagi.

### MUAMMONOMA

- Kalit so'zlar:**
1. Butun mavjud, borligi o'rganuvchi fan - 9, 2, 4, 2, 2, 16, 1, 9.
  2. To'g'ri chiziq qismi - 8, 17, 12, 15, 3.
  3. Tinish belgi - 23, 17, 11, 10, 7, 6.
  4. Chizmachilik asbobi - 24, 2, 20, 18, 2, 24.
  5. So'z turkumi - 12, 1, 5.
  6. Sonlar yig'indisidan iborat amal - 22, 21, 14, 2, 14.
  7. Tenglamani tashkil etuvchi sonlarning har biri - 13, 3, 19.

Endi kalit so'zlarning javoblari asosida shakl atrofidagi raqamlarda ifodalangan muammonomani hal eting. Bunda ulardan ustoz, olim, pedagog Rahim Usmonovning ibratli so'zlarini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan O'RIPOV



Bo'yiga: 1. Ijodkorlar va ularning badiiy asarlarini o'rganuvchi fan. 2. O'simliklar olamini o'rganuvchi fan. 5. Umumiy ta'limning ilk bosqichi. 9. Kelishiklardan biri. 10. Kompyuter ekranida matnni aks ettiruvchi moslama. 11. So'z turkumi. 14. Eng birinchi darslik. 15. Adabiy

janr. 16. Otning kimga oidligi shaklini yasovchi qo'shimcha. 17. Rasm chiziladigan daftar.

Diagonal bo'yicha o'ngga: 1. Eng yuqori baho. 3. Qarama-qarshi ma'nodagi so'zlar. 7. Axloq haqidagi ta'lim fani. 12. Matnni aytib turib o'tkaziladigan yozma ish.

### Gazetaning 34-sonida berilgan «O'ZBEKISTON» AYLANMA SKANVORDIning javoblari:

Hurriyat, Farg'ona, Madhiya, Neksiya, Toshkent, Ermatov, Andijon, Kamalak, Karmana, To'rko'l, Temirova, Kelajak, Zulfiya, Mahalla, Romitan, Alpomish, Taymazov.

8

2-sentabr 2013



Bosh muharrir  
**Feruz JALILOVA**

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

**Navbatchi muharrir**  
Axtamul KARIMOV  
**Rassom**  
Feruz MATYOQUBOV  
**Dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV  
**Musahih**  
Nargiza ABDULLAYEVA

**Manzillimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 47 431  
Buyurtma N: J 7953

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOL» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'asmasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.